



86. To'g'ri to'rtburchakning yuzi


Yondosh mavzu:
maktab tadbirleri.




Kvadrat, yuz o'lchovi,
bo'yi, eni.





1. Konkurslardan birini o'tkazish uchun maydon tomonlari 1 m dan bo'lgan kvadratlarga bo'lib chiqildi. Bu maydonning bo'yi va eni qanday? $5 + 5 + 5$ ifoda qanday kattalikni hisoblashda yordam beradi?



2. Ushbu to'g'ri to'rtburchaklarning yuzlarini hisoblash uchun ifodalar tuzing. Ularni qanday qisqa ifodalar bilan almashtirish mumkin?



$$6 + 6 + 6 + 6 \\ 6 \cdot 4$$




yangi



To'g'ri to'rtburchakning yuzini topish uchun uning bo'yini eniga ko'paytirish kerak. To'g'ri to'rtburchakning yuzi S harfi bilan belgilanadi.

$$S = a \cdot b$$




3. Tomonlari 5 cm va 6 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak yasang. Uning yuzini hisoblang.



4. Yuzlarni toping.

- Lola bilan Malika qadimiy o‘yinlar o‘ynashdi. Ular bo‘yi 5 cm va eni 2 cm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak chizishdi. Bu to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi qanday?
- “Xochchalar-nolchalar” o‘yini uchun Munisa bilan Malika tomoni 3 cm bo‘lgan kvadrat chizishdi. Bu kvadratning yuzi nimaga teng?
- Ikkinci sinflar musobaqasi uchun “15” o‘yiniga kvadrat ramka tayyorlandi. Ramkaning tomonlari uzunligi 4 dm. Ramkaning yuzi nimaga teng?



5. Misollarni yeching va qatnashchilari barcha bilim sohalari bo‘yicha beriladigan savollarga javob berishi kerak bo‘lgan tanloving qanday atalishini aniqlang.

A $718 + (180 - 53)$

K $(655 - 147) - 226$

O $365 + (192 + 283)$

N $918 - (800 - 68)$

I $205 + 87 + 229$

R $662 - (98 + 91)$


V $805 - 375 + 193$

T $(600 - 79) - (285 + 146)$

623	521	282	90	840	473	521	186	845
-----	-----	-----	----	-----	-----	-----	-----	-----



6. Berilgan o‘lchamlar bo‘yicha to‘g‘ri to‘rtburchak chizing va uning yuzini hisoblang.



7. Matematika bo‘yicha olimpiadada 312 kishi qatnashdi, bu rus tili bo‘yicha olimpiada qatnashchilaridan 187 kishi ko‘p. Matematika va rus tili olimpiadalarida birgalikda necha kishi qatnashgan bo‘lsa, shuncha kishi o‘qish olimpiadasida qatnashgan. O‘qish olimpiadasida necha kishi qatnashgan?